



**YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTON : MILLIY TIKLANISHDAN - MILLIY
YUKSALISH**

Boyo'rayev Sirojiddin Usmonovich

Sanaqulov Diyorjon Sobirjon o'g'li

DTPI Pedagogika fakulteti

Jismoniy madanyat talabasi :

Akhmedovdiyorbek7@gmail.com

ANNOTATSIYA:

O'zbekiston Respublikasida davom etayotgan ijtimoiy o'zgarishlar, ular sabablari, natijalari va jamiyat rivojiga ta'sirlari ko'rib chiqiladi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, ijtimoiy vaziyatni yaxshilash, yoshlar, ayollar va boshqa ijtimoiy guruhlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida ma'lumot beriladi. Maqola shuningdek, O'zbekiston kelajagi uchun ijtimoiy o'zgarishlarning ahamiyatini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy o'zgarishlar, Mustaqillik, O'zbekiston, Islohotlar, Yoshlar, Gender tengligi

АБСТРАКТНЫЙ:

Рассмотрены происходящие социальные изменения в Республике Узбекистан, их причины, результаты и влияние на развитие общества. Приведена информация о проводимых в стране реформах, улучшении социальной ситуации, созданных возможностях для молодежи, женщин и других социальных групп. В статье также анализируется значение социальных изменений для будущего Узбекистана.

Ключевые слова: Социальные изменения, Независимость, Узбекистан, Реформы, Молодежь, Гендерное равенство

ABSTRACT:

The ongoing social changes in the Republic of Uzbekistan, their causes, results and effects on the development of society are considered. Information is provided about the reforms implemented in the country, improvement of the social situation, opportunities created for youth, women and other social groups. The article also analyzes the importance of social changes for the future of Uzbekistan.





Key words: Social changes, Independence, Uzbekistan, Reforms, Youth, Gender equality

Kirish

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarda amalga oshirilgan ijtimoiy o‘zgarishlar mamlakat rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy sohada erishilgan yutuqlar, jamoatchilik hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, gender tengligi, yoshlar masalalari kabi ijtimoiy muammolar jamiyat rivojlanishining asosiy omillaridan biridir. O‘zbekiston o‘zining farovon kelajagi uchun ijtimoiy sohadagi islohotlarni davom ettirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasidagi Ijtimoiy O‘zgarishlar

1. Ta’lim Sohasidagi O‘zgarishlar: O‘zbekiston ta’lim tizimi sifatini oshirish maqsadida yangi standartlar qabul qilingan, moddiy-texnik baza yangilanmoqda. Yosh avlodga sifatli ta’lim berish, ularning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar tuzilgan.

2. Sog‘liqni Saqlash: Sog‘liqni saqlash tizimida islohotlar, yangi klinikalar va kasalxonalarning qurilishi, tibbiy xizmat sifatini oshirishga qaratilgan. Sog‘liqni saqlash sohasida innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi fuqarolarning salomatligini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

3. Yoshlar Masalalari: O‘zbekiston yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning istak va ehtiyojlarini inobatga olish uchun bir qator dasturlar va loyihalar amalga oshirilmoqda. Yoshlarni ta’lim davomida kasbga tayyorlash va ularni ish bilan ta’minlash masalalariga alohida e’tibor berilmoqda.

4. Gender Tengligi: Ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, gender tengligini ta’minlash maqsadida qonunchilikda o‘zgarishlar kiritilmoqda. Ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotda faol ishtirok etishini rag‘batlantirish uchun turli dasturlar ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizda uzoq vaqt davomida yig‘ilib qolgan ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi jiddiy tizimli muammolarni hal etish, aholining munosib hayot kechirishini ta’minlash va tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, iqtisodiyotning muayyan tarmoqlari va ijtimoiy soha yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun mas’ul vazirlik va idoralar faoliyatida ishonib topshirilgan tarmoq yoki sohani uzoq muddatli rivojlantirish to‘g‘risida tasavvur mavjud emas, iqtisodiyot va ijtimoiy sohadagi muammolarni hal qilish choralarini ishlab chiqishda tashabbuskorlik ko‘zga tashlanmayapti.



Bundan tashqari, tayyorlanayotgan hujjatlar loyihalarini sifatli va har tomonlama ekspert-tahliliy o‘rganishni ta’minlashga, ularning ehtimoliy oqibatlarini baholashga yetarlicha e’tibor berilmayapti.

Ayrim vazirliklar va idoralarning faoliyatida aholi va tadbirkorlik subyektlari manfaatlarni, iqtisodiy va ijtimoiy soha ehtiyojlarini hisobga olmagan holda idoraviy va sohaviy manfaatlarni ilgari surishda namoyon bo‘layotgan eskicha yondashuvlar saqlanib qolimmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilish bo‘yicha ishlab chiqilayotgan tashabbuslarning sifatini, olib borilayotgan islohotlar natijadorligini tubdan oshirish, amalga oshirilayotgan tadqiqotlarni islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirish hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ularning rolini oshirish maqsadida:

1. Iqtisodiy tadqiqotlar markazi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (keyingi o‘rinlarda — Markaz) etib qayta tashkil etilsin.

2. Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari etib belgilansin:

chuqur o‘rganilgan, shu jumladan rivojlangan xorijiy mamlakatlarda muvaffaqiyatli sinovdan o‘tgan amaliyotlarni hisobga olgan holda, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning strategik yo‘nalishlari, xususan, iqtisodiyot, moliya, tadbirkorlik va ijtimoiy sohada boshqaruvni takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish maqsadida tahliliy va amaliy tadqiqotlar o‘tkazish;

iqtisodiyot va ijtimoiy sohadagi muhim tizimli muammolarni global va mintaqaviy xavf-xatarlar ta’sirini hisobga olgan holda hal qilish choralarini ishlab chiqish maqsadida davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, tadbirkorlik subyektlari va boshqa manfaatdor tomonlarning samarali tarmoqlararo va idoralalararo hamkorligini joriy etish;

davlat organlari va tashkilotlarining resurslari va mablag‘larini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim masalalarini hal qilish yoki ustuvor strategik vazifalarni amalga oshirishning eng maqbul yo‘llarini topish uchun samarali safarbar etish, birlashtirish va ulardan oqilona foydalanishga ko‘maklashish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda iqtisodiy modellashtirishning zamonaviy vositalarini qo‘llash orqali ishlab chiqilayotgan va amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat chora-tadbirlarining ssenariylari va natijalarini tahlil qilish;





hududlarni kompleks rivojlantirish masalalarini o‘rganish, respublika mintaqalarining raqobatdagi ustunligi, shuningdek, mavjud salohiyati, resurslari va zaxiralaridan samarali foydalanishdan kelib chiqqan holda ularni rivojlantirish va ixtisoslashtirishga strategik yondashuvlarni shakllantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

ishlab chiqilayotgan va amalga oshirilayotgan tashabbuslar va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining iqtisodiyot va ijtimoiy sohaga ta’sirini baholashni tashkil etish, ularni tuzatish bo‘yicha takliflar berish;

iqtisodiyotga nisbatan boshqaruvi yukini maqbullashtirish, huquqni qo‘llash amaliyotining samaradorligini oshirish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy sohada ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar loyihalari sifatini oshirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sohasida xalqaro tashkilotlarning O‘zbekiston Respublikasiga ekspert, axborot-tahliliy va boshqa texnik yordam materiallarini umumlashtirish va ularni samarali amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasini iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni isloq qilish masalalari bo‘yicha axborot-tahliliy jihatdan ta’minalash;

mahalliy va xorijiy olimlar va mutaxassislarni jalb qilgan holda iqtisodiyot, ijtimoiy soha va hududlarni rivojlantirishning dolzarb masalalarini ommaviy axborot vositalari, konferensiyalar, davra suhbatlari va seminarlarda ochiq muhokama qilishni tashkil etish;

ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish masalalari yuzasidan xalqaro iqtisodiy va moliyaviy institutlar, xorijiy ilmiy markazlar va ekspertlar bilan hamkorlik qilish va ushbu sohadagi davlat siyosatining samarali chora-tadbirlari bo‘yicha takliflar kiritish.

Oldingi tahrirga qarang.

3. Belgilansinki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiy rivojlanish masalalari bo‘yicha maslahatchisi o‘rinbosari bir vaqtning o‘zida Markaz direktori hisoblanadi.

(3-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-oktabrdagi PF-168-soni Farmoni tahririda)

4. Davlat organlari va tashkilotlari, tahliliy va tadqiqot markazlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, tadbirkorlik subyektlari, fuqarolik jamiyati va ekspertlar hamjamiyati vakillari, boshqa manfaatdor tomonlarning samarali tarmoqlararo va idoralararo hamkorligini yo‘lga qo‘yish maqsadida Markaz negizida “ochiq makon” tamoyili asosida ochiq innovatsion platforma tashkil etilsin va unda quyidagilar nazarda tutilsin:





davlat organlarining jamoatchilik va ilmiy hamjamiyat bilan, shu jumladan ijtimoiy so‘rovlар o‘tkazish, jamiyat va davlatning o‘zaro qayta aloqa mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy sohada yuzaga keladigan muammolarni muhokama qilish orqali o‘zaro hamkorlik qilish uchun Internet tarmog‘ida maxsus portal yaratish;

ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilish bo‘yicha ishlab chiqilayotgan tashabbuslarni va normativ-huquqiy hujjalalar loyihalarni keng muhokama qilish, shuningdek, barcha tomonlarning manfaatlari hisobga olinishini ta’minlash maqsadida mutaxassislar, asosan xususiy sektor vakillari orasidan ilmiy-tadqiqot guruhlarini shakllantirish;

vakolatli davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari, ishbilarmon doiralar, ekspertlar hamjamiyati va keng jamoatchilik vakillari bilan tematik uchrashuvlar va muhokamalarni tashkil qilish;

ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilishga qaratilgan tashabbuslar va normativ-huquqiy hujjalarni amalga oshirishning amaliy masalalarini hal qilishda manfaatdor tomonlarning bevosita ishtirokini, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali ta’minlash;

oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun Markaz faoliyatida va tashkil etilayotgan tadbirlarda ishtirok etish orqali amaliy ko‘nikmalarni oshirish maydonini yaratish.

5. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi hamda Innovatsion rivojlanish vazirligining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzurida Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar akseleratori (keyingi o‘rinlarda — Akselerator) faoliyatini tashkil etish hamda davlat organlari va tashkilotlari resurslarini jalb qilish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sohasidagi jiddiy muammolarni jadallik bilan tezkor va samarali hal qilish maqsadida Markaz tuzilmasida Akseleratorning ishchi organini tuzish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin.

Shunday tartib o‘rnatisinki, unga ko‘ra:

Markaz direktori Akseleratorning rahbari hisoblanadi;

har chorakda Markaz tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar natijalari, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishini monitoring qilish va ularning natijadorligini baholash, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar materiallarini o‘rganish, vazirliklar va idoralarning takliflari asosida tarmoqlararo va idoralalararo darajada hal qilinishi zarur bo‘lgan muammoli masalalar ro‘yxati (keyingi o‘rinlarda — ro‘yxat) tuziladi;

Oldingi tahrirga qarang.





ro‘yxat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiy rivojlanish masalalari bo‘yicha maslahatchisi bo‘linmalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy ekspertiza va kompleks tahlil qilish masalalari bo‘yicha maslahatchisi bo‘linmalari bilan kelishiladi, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida va Markazning rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi;

(5-bandning beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-oktabrdagi PF-168-sonli Farmoni tahririda)

Oldingi tahrirga qarang.

ro‘yxatga kiritilgan muammolarni hal qilishni tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiy rivojlanish masalalari bo‘yicha maslahatchisi bo‘linmalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy ekspertiza va kompleks tahlil qilish masalalari bo‘yicha maslahatchisi bo‘linmalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining boshqa bo‘linmalari bilan yaqin hamkorlikda muammolarning har biri bo‘yicha ishchi guruhini shakllantirish va Markaz xodimlari orasidan muvofiqlashtiruvchini tayinlash orqali amalga oshiriladi.

(5-bandning oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-oktabrdagi PF-168-sonli Farmoni tahririda)

Birlashgan Arab Amirliklari Hukumati tomonidan Birlashgan Arab Amirliklarining Vazirlar Mahkamasi va keljak vazirligi huzuridagi Hukumat akseleratori timsolida Akseleratorni rivojlantirishga, shuningdek, uning xodimlari va boshqa manfaatdor tashkilotlar xodimlarini o‘qitishni tashkillashtirishga ko‘maklashish uchun tayyor ekanligini bildirganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Markaz zimmasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi PF-5614-son Farmoni bilan tashkil etilgan 2019 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasida tarkibiy islohotlar asosiy yo‘nalishlarining “Yo‘l xaritasi”ni amalgalashishni ta’milash bo‘yicha Iqtisodiy kengash huzuridagi Xalqaro ekspertlar guruhi faoliyatini tashkil etish, respublikaning vazirlik va idoralariga shartnoma asosida jalg qilingan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasiga texnik ko‘mak dasturlarida ishtiroy etayotgan xorijiy maslahatchilar bilan hamkorlik qilish va ular faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi yuklansin.

7. Belgilansinki:

Markaz yuridik shaxs huquqlariga ega bo‘lgan davlat muassasasi bo‘lib, o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi oldida hisobdordir;



Markaz qayta tashkil etilgan Iqtisodiy tadqiqotlar markazining barcha huquq va majburiyatlari bo'yicha huquqiy voris hisoblanadi;

Oldingi tahrirga qarang.

Markaz direktori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiy rivojlanish masalalari bo'yicha maslahatchisi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan hamda maqomi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi shu'ba mudiriga tenglashtirilgan ikki nafar o'rinosarga ega;

(7-bandning to'rtinchchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-oktabrdagi PF-168-sonli Farmoni tahririda)

Markazning rahbar va ilmiy xodimlariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi xodimlari uchun nazarda tutilgan mehnatga haq to'lash shartlari va tibbiy xizmat ko'rsatish tartibi qo'llaniladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Markazning ilmiy va amaliy faoliyatini muvofiqlashtirish funksiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiy rivojlanish masalalari bo'yicha maslahatchisi bo'linmalari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy ekspertiza va kompleks tahlil qilish masalalari bo'yicha maslahatchisi bo'linmalariga yuklansin.

(7-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-oktabrdagi PF-168-sonli Farmoni tahririda)

8. Markazga quyidagi huquqlar berilsin:

davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari mutaxassislarini, ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari xodimlarini, shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlar va mutaxassislarini shartnoma asosida tadqiqotlar olib borishga jaib qilish;

tadqiqotlar olib borish va kadrlar tayyorlash bo'yicha xalqaro tashkilotlar, jamg'armalar, mahalliy va xorijiy tadqiqot markazlari va o'quv muassasalari bilan shartnomalar tuzish;

noshirlik faoliyatini amalga oshirish, axborot-tahliliy sharhlar va ma'ruzalar, "Ekonomicheskoye obozreniye" ilmiy-tahliliy jurnalini va boshqa nashrlarni chop etish;

Markazga yuklangan vazifalarni bajarish uchun davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlardan zarur statistik, tahliliy va boshqa ma'lumotlarni so'rash va olish.

Oldingi tahrirga qarang.





(9-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-avgustdagи PQ-5223-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.08.2021-y., 07/21/5223/0797-son)

9. Markaz direktoriga, zarur hollarda, Markazning tasdiqlangan tarkibiy tuzilmasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi bilan kelishilgan holda xodimlarning belgilangan umumiyligi soni va mehnatga haq to‘lash fondi doirasida o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek, muayyan tashabbuslarni ishlab chiqish va oldiga qo‘yilgan boshqa vazifalarni hal qilish maqsadida shu’balar doirasida bo‘linmalar tashkil etish huquqi berilsin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari (Z.Sh. Nizomiddinov) bir oy muddatda Markaz to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlasın.

11. Quyidagilar Markazni moliyalashtirishning asosiy manbalari etib belgilansin:

har yili tasdiqlanadigan parametrlar doirasida ajratiladigan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi faoliyatiga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari;

O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan o‘tkaziladigan grant tanlovlari natijalari asosida ajratiladigan mablag‘lar;

vazirlik, idora va muassasalar tomonidan ularning buyurtmalari asosida tadqiqotlar va baholash ishlarini olib borish uchun ajratiladigan mablag‘lar;

xalqaro moliya institutlari va donor tashkilotlarining grant va maqsadli mablag‘lari;

qonun hujjalari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Belgilansinki:

ushbu bandning uchinchi — yettinchi xatboshilarida nazarda tutilgan mablag‘lar Markazning maxsus hisobvarag‘iga o‘tkaziladi va Markaz xodimlarini qo‘shimcha moddiy rag‘batlantirish va malakasini oshirish, shu jumladan xorijiy stajirovkalarini tashkil etish, tadqiqot loyihibarini amalga oshirish, Markazning rasmiy veb-saytini yaratish va faoliyat yuritishini ta’minlash, shuningdek, jalb qilingan mahalliy va xorijiy mutaxassislar mehnatiga haq to‘lash uchun yo‘naltiriladi;

Markaz direktori ushbu bandning to‘qqizinchli xatboshisida nazarda tutilgan hisobvaraq mablag‘lari hisobidan xodimlarga har oylik mehnatga haq to‘lash fondining 100 foizigacha miqdorida ustamalar belgilash huquqiga ega;





Markazning daromadlari soliq solish obyekti hisoblanmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari (Z.Sh. Nizomiddinov) 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi faoliyatiga ko'maklashish jamg'armasidan 5 milliard so'm miqdorida bir martalik beg'araz moliyaviy yordam ajratsin.

12. Belgilansinki:

Markazning rahbar va ilmiy xodimlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi xodimlarining bazaviy lavozim maoshi 1,5 baravar ko'paytirilgan holda belgilanadi;

Markazning boshqa xodimlariga davlat boshqaruvi organlarida tegishli lavozimlar uchun o'rnatilgan mehnatga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish miqdorlari va shartlari tattbiq etiladi, ularning (yordamchi xodimlar bundan mustasno) lavozim maoshlarini belgilashda Yagona tarif setkasi bo'yicha mehnatga haq to'lash tarif koeffitsiyenti 2 baravarga oshirilgan holda qo'llaniladi;

Markaz xodimlariga ilgari ishlagan joyida berilgan, shu jumladan ko'p yillik mehnati, harbiy va maxsus unvonlar (martaba va malaka darajalari, diplomatik darajalar va boshqalar) uchun ustamalar va qo'shimcha haqlar saqlanib qoladi, harbiy va maxsus unvonlarga ega bo'lмагan oliy yuridik ma'lumotli xodimlar uchun esa o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi organlari va muassasalari xodimlari uchun belgilangan martaba darajalari berilishi mumkin.

Markazning ayrim xodimlarining mehnatiga Yagona tarif setkasi bo'yicha haq to'lash razryadlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

13. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

ushbu qarorda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan budjet ajratmalarini 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida ijtimoiy soha uchun nazarda tutilgan mablag'lar doirasida ajratsin, 2020-yildan boshlab esa ularni O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutsin;

Markazga asoslantirilgan hisob-kitoblarga ko'ra, binolarni ta'mirlash va zarur jihozlar, orgtexnika bilan jihozlash (qo'shimcha jihozlash), xizmat avtotransporti sotib olish (yangilash), isitish tizimi, shuningdek, Markaz faoliyatini molialashtirish uchun zarur mablag'lar ajratsin;

Markaz direktori va uning o'rinosarlariga 3 dona shaxsiy biriktirilgan, shuningdek, 1 dona navbatchi xizmat avtotransportini saqlash uchun limit ajratsin.





14. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi yangi tadqiqot loyihalarini amalga oshirish, Markazning intellektual-tahliliy salohiyatini rivojlantirish uchun, shu jumladan xalqaro donorlarni jalb qilish choralarini ko‘rishda Markazga ko‘maklashsin.

15. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Markaz xodimlarini zarur aloqa turlari va vositalari, shu jumladan hukumat aloqasi bilan, shuningdek, keng polosali Internet tarmog‘iga ulanishini ta’minlasin.

16. Markaz:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, vazirliklar va idoralarning me’yoriy va yo‘riqnomalar hujjatlari majburiy tartibda yuboriladigan tashkilotlar ro‘yxatiga;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, boshqa vazirlik va idoralarning statistik axborot byulletenlari majburiy tartibda yuboriladigan reyestrga kiritilsin.

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Respublika tovar-xom ashyo birjasi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, boshqa vazirlik va idoralar tadqiqotlar olib borish uchun zarur ma’lumotlarni taqdim etsin.

(16-bandning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagи PF-89-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son)

17. Markaz Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Novza ko‘chasi, 6-uy manzilida joylashtirilsin.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Markaz tadqiqotlari natijalari ommaviy axborot vositalarida nashr etilishi va muhokama qilinishini tashkillashtirishga ko‘maklashsin.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 7-apreldagi “Iqtisodiy tadqiqotlar markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi F-982-son farmoyishi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.





20. Adliya vazirligi manfaatdor idoralar bilan bирgalikda bir oy muddatda qonun hujjalariга ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirlitsin.

21. Mazkur qarorming ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi R.A. G'ulomov zimmasiga yuklansin.

Foydalanuvchi adabyotlar;

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ijtimoiy rivojlanish to'g'risidagi farmonlari va qarorlari.
2. "O'zbekiston Respublikasi ta'lrim tizimi va uning rivoji" – O'zbekiston Respublikasi Xitoy elchixonasi.
3. Ismatov N. "O'zbekistonda gender tengligi masalalari".
4. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023-yilga mo'ljallangan rejalariga doir hisobotlar.

